

RAMZ VA UNING LISONIY TALQINI

Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8320689>

Annotatsiya: Maqolada ramz va uning lisoniy talqini yoritilgan. U haqidagi qarashlar va nazariy ma'lumotlar keltirilib, umumiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ramz, majoz, belgi, fikr, tushuncha, ma'no, madaniyat.

Yunoncha "simvol" so'zi dastlab sopol yoki chinni parchasini ifodalab, do'stona munosabatlar belgisi bo'lib xizmat qilgan. Mehmonni kuzatayotgan mezbон mehmonga sopol yoki chinni parchasining bir bo'lagini bergan, ikkinchi bo'lagini esa o'zida olib qolgan. Bu mehmon qachondir yana uyga kelganida, uni ana shu sopol parchasidan tanib olishgan. Demak, qadimgi davrlarda "simvol" so'zi "shaxs guvohnomasi" ma'nosida qo'llanilgan¹.

Ramzning ingliz tilidagi muqobili bo'lgan "symbol" so'zi mantiq, semiotika, tilshunoslik doirasida odatda "belgi" tarzida izohlanadi. Ramz keng ma'noda, voqelikni jonli mushohada qilish orqali vujudga kelgan ilk tasavvurdan iborat. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ramz voqelikning ini'kosidir. Tor ma'noda esa u asosan badiiy ifoda usuli hisoblanadi. "Webster's Dictionary of the English" lug'atida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Biror narsa-buyum, voqea-hodisaning o'rnida yoki ishora sifatida foydalanish bo'lib, idrok etish va munosabat, assotsiyalashuv, oldindan belgilangan yoki belgilanmagan o'xshashlik. Asosan, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan narsa-buyum orqali qandaydir iroda, sifat yoki ma'lum davlat, diniy jamiyatning umumlashgan ifodasi"². Masalan, "kabutar" – tinchlik, uzoq umr, beg'uborlik, ruh ramzi, "atirgul - otashin sevgi, o'tmish, jasorat, rahm-shafqat, kechirim, ilohiy sevgi, shahidlik va g'alaba ramzi. Belgi va uning denotat ma'nosi o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik borligiga urg'u berilmoqda. Bu yerda belgi konkretlashgan narsa-predmet, uning anglanuvchisi esa ko'p holatlarda mavhum xususiyatga ega bo'lgan tushunchalardan iborat bo'ladi.

Aniqlik orqali mavhumlikni ifodalash majoziylikning tabiatini belgilaydi. A.Sharapov "Olamlar ichra olamlar" asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Simvolik yoki ramziy obraz o'z xarakteriga ko'ra majozning bir turidir. Lekin bu har qanday majoziy - ko'chma ma'nodagi so'z yoki so'z birikmasi simvol degan gap emas... Poetik asarlarda shunday majoziy holatlar ham qo'llanilishi mumkinki, ular kontekst bilan birga olingan holda ramziy ma'no kasb etadi. Ba'zan birgina so'z yoki so'z birikmasiga katta ijtimoiy mazmunni singdirish mumkin. Bunday poetik ramz uchun g'oyalarning, ideallarning timsoli bo'lib qoladigan, an'anaviy obrazga aylangan narsalar olinadi"³.

Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi:

- 1) ramz – belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formallashtirishda);
- 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida);

¹ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 139.

² <https://www.merriam-webster.com/dictionary/symbol>

³ Шаропов А. Олавлар ичра олавлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 47-50.

3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda);

4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.) ⁴.

Ramz – voqe-hodisa haqida ma'lum bir ma'nodagi umumlashma bo'lib, u aks etgan narsaning o'zigagina ishora qiladi. Narsaning har qanday mazmuni uning ramzi bo'lolmaydi. Uning ramzga aylanishi uchun ular o'ziga xos tarzda qaytadan idrok etilishi, ma'lum bir shartlilik asosida omma tomonidan bir xil qabul qilinadigan darajaga chiqishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, ramz uchun narsaning umumlashma mohiyatining o'zi yetarli bo'lmaydi. Narsa mazmunining ramzga aylanishi, umum miqyosida keng qamrovli darajaga chiqishi uchun unda anchagina ma'nolar aks etishi kerak. Ramz narsaning o'ziga xos tarzda shakllantirilgan, ma'lum bir tartibga solingan hamda doimo o'zida qandaydir bir g'oyani anglatib turadigan ko'rinishidan tashkil topgan bo'ladi. U murakkab va ko'p qirrali hodisaki, uning barcha xususiyatlarini bir ta'rifga sig'dirish anchayin qiyin masaladir. Aynan shuning uchunmi ko'plab lug'atlarda “ramz” atamasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Tor ma'noda, bu termin tabiiy, falsafiy fanlarda, shuningdek, insonning amaliy hayotida amal qiluvchi maxsus belgilarni anglatadi. Masalan, “x” (iks) yoki “y” (igrek), yo'l qoidalaridagi barcha belgilar, davlat gerblari va hokazo.

2. Keng ma'noda “ramz termini” san'atning barcha turlaridagi obraz tushunchasini butun murakkab jihatlari bilan o'zida qamrab oladi⁵.

Ramz atamasining yuqorida keltirilgan ikki xil ma'nosidan biz uchun eng muhimi ikkinchisi hisoblanadi. U shunday bir murakkab hodisaki, uni yaxlit bir formula sifatida badiiy obrazning ichiga qo'shib yuborish yoki undan ayirib bo'lmaydi. Shunga qaramay, ramz obrazning mohiyatini oydinlashtiradi, shaklan yorqinlashtiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, hissiy ta'sirchanligini kuchaytiradi⁶. San'at asarida ramzning ko'p ma'noliligi va shartlilik obrazning yorqinligi, ta'sirchanligini oshirishga qanchalar yordam bersa, qolgan sohalarda, shuningdek, kundalik turmushimizdagi faoliyatimizda uning bu xususiyati yaxshigina qiyinchilik va chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Ramz – inson ruhiyatining tili bo'lib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Aynan ana shu ramzlar tilida miflar, ertaklar va dostonlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi ramzlari muayyan xalqning ilk tafakkur tarzi, tasavvurlarini va ijodini aks ettiradi. Jumladan, turkiy xalqlar og'zaki ijodida “Ulgen – yorug'lik va ezgulik. Erlikxon –zulmat va yovuzlik, Momaqaldiraq – tangrilar ovozi, Yashin – tangrining o'qi, Sel – yovuz ruhning ofati, Tog' – tilsimli qo'rg'on, Suv, Tuproq – tiriklik, G'or – ruhlar makoni, Osmon – ezgulik tangrilari, Yer osti – yovuz ruhlar makonining ramzi, kodlashgan ismlari”⁷ bo'lgan.

Qadimgi bitiklar va xalq og'zaki ijodi namunalari eng katta va buyuk ma'naviy boyligimiz ekanligini birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham alohida qayd etganlar: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-

⁴ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – B. 139.

⁵ Философский энциклопедический словарь. - Москва, 1983. - С 607-608.

⁶ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъритада ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

⁷ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. –Б. 67.

minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at ... va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi"⁸.

Bundan kelib chiqadiki, xalq og'zaki ijodida ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinma, fikr va tasavvurlari aks etgan. Ularda ifodalangan ramzlarni o'rganish hamda ularni to'g'ri talqin qilish bobokalonlarimizning ma'naviy dunyosini yorqinroq ochib berishga, ma'naviyat-ma'rifatimizni boyitishga yordam beradi.

Ramzlarning vujudga kelishi ruhiy-psixologik asosga egadir. Goble d'Alviella o'zining "Ramzlar migratsiyasi" asaridan quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ramz bu bir ifoda shaklidir. Uning asosiy maqsadi narsa-predmetning nusxasini olish emas, u shaklning ma'noga, shaklning shaklsizlikka aylanishidir". Xuang Pukayning "Simvolizm va imajinizm" asarida ta'kidlanishicha, haqiqiy ramzda yoki ramzlashgan narsa-predmetda u xoh aniq bo'lsin yoki yo'q, xoh bevosita bo'lsin yoki, aksincha, u doimo cheksizlikning ma'lum darajadagi ifodasi va ko'rinishidir; "cheksizlik" "chegaralanganlikka" singdiriladi va ma'lum bir shaklda aks etadi⁹. Aslini olib qaraganda ham ramzlarda chegaralangan cheksizlik, shaklga solingan shaklsizlik xususiyatlari mavjud. Buni esa har bir xalqning o'ziga xos tafakkur tarzi sifatida qabul qilish mumkin. Ramzlarga xos bo'lgan bunday tafakkur tarzi ularning mif, afsona, rivoyatlarida o'zining in'ikosini topadi.

Ramzlar har bir xalqning madaniy fenomeni bo'lib, har bir xalqda o'ziga xos ramzlar haqidagi tushunchalar bor. Ular muayyan bir ma'nolar yig'indisini ochib berishga xizmat qiladi. Ramz madaniy dunyodan obrazli dunyoga o'tish ko'prigi bo'lib xizmat qiladi. U mazmun va ifodada ham doimo o'zida tugallangan mazmunni namoyon qiladi. Matnda o'zining yagona ma'nosini beradi hamda semiotik kontekst oralig'ida aniq ifoda chegarasini belgilaydi. Shuningdek, ramz madaniy yo'nalish, ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi.

Badiiy ramzning mohiyatini hamda vazifasini to'g'ri anglash uchun ramz tabiatidagi badiiy ko'chim shartliligini, ramz tayangan mantiqiy asosini, shu bilan birga, tarixiy va milliy xususiyatni yaxshi bilish talab etiladi. Adabiyotshunos A.Sharopov qayd etganidek, badiiy shartlilik ramzdagi hissiy qo'zg'atuvchanlikni ta'minlasa, mantiqiy asos undagi yashiringan ma'noni topishga yordam beradi. Mantiqiy asosni to'g'ri aniqlashda har bir xalqning tarixiy o'tmishi va e'tiqodiy tasavvurlari muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi davrda tilshunoslik madaniyat va ma'naviyatning til birliklarida qanday aks etishi, qanday o'ziga xos ma'no berishi masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Til madaniyatning bir tarkibiy qismi bo'lgani uchun xalq dunyoqarashining xususiy jihatlarini o'zida aks ettiradi.

Tilimizdagi ramz va uni ifodalovchi so'zlar, birikmalar madaniyatimiz ifodachisi hisoblanadi. Ular ma'lum bir voqelikni va holatni yorqinroq ifodalaydi. Ular orqali milliy o'zlik, borliqqa munosabat namoyon bo'ladi.

Ramziy ma'nolar yuzaga chiqayotganda shaxsning fikrlashi, dunyoqarashi, xarakter-xususiyati, bo'lib o'tgan voqelikka munosabati kabi bir qancha omillar ham sintezlangan holda ifodalanadi.

Ramzlarda umumiylik xususiyati bor. Lekin uning xususiy holatlar uchun ishlatilishida

⁸ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. -Б. 23.

⁹ Очиллов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори....дисс. – Тошкент, 2018. -Б. 16.

so'zlovchining o'z fikrining ta'sir darajasini yana-da orttirishga, uni obrazliroq qilib ifodalashga harakati bilinadi. Ramz orqali butun bir voqea yoki shaxs haqida umumiy fikr bildirilishi mumkin, bu esa uning naqadar muhim ekanligini bildiradi.

Ular har bir xalqda o'ziga xos bo'lib, ramzlar haqidagi tushunchalar barcha xalqlarda bor. U moddiy-madaniy dunyodan obrazli, tafakkurli dunyoga o'tish uchun ko'prik vazifasini ham bajaradi. So'zlarning qanday ramziy ma'no anglatishi xalqlarning yashash tarziga, shug'ullanadigan kasbiga, borliqni qay tarzda idrok qilishiga bog'liq. Shuning uchun ham ramziy ma'nolar millatlarda turlicha, ayrim holatlarda bir-birini umuman aksini bildirishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davriga kelib, ramzning qo'llanilish hamda mazmun-mohiyati ancha kengayib, semantik jihatdan boyishi kuzatilmoqda. U orqali ifodaning ta'sir qilish kuchi yuksaladi, insonning o'zi mansub bo'lgan millat mental dunyosini ongida qanchalik aks ettirganligi, muloqot madaniyati darajasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi.

References:

1. <https://www.merriam-webster.com/dictionary.symbol>
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
3. Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2000.
4. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеъриятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори....дисс. – Тошкент, 2018.
6. Философский энциклопедический словарь. - Москва, 1983.
7. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
8. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.